

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA INKLYUZIV TA'LIMNI BOSHQARISH

Mirzabekova Xillola Komiljanovna

**Toshkent shahar Chilonzor tumani
350-DMTT direktori**

Annotatsiya: Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etish ta'lim islohotlari jarayonlarida muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv ta'lim nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning sifatli ta'lim xizmatlaridan foydalanishi, shuningdek, maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini ham shaklan va mazmunan takomillashtirish imkonini bermoqda. Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni boshqarishning ayrim masalalari to'g'risida so'z boradi.

Kalit so'zlar: inklyuziv ta'lim, maktabgacha ta'lim tashkiloti, alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar, pedagog, tashkiliy-pedagogik sharoitlar, ta'lim sifati.

Аннотация: Внедрение инклюзивного образования в дошкольные образовательные организации имеет большое значение в процессах реформирования образования. Инклюзивное образование позволяет не только предоставлять качественные образовательные услуги детям с особыми образовательными потребностями, но и совершенствовать деятельность дошкольных образовательных организаций как по форме, так и по содержанию. В данной статье рассматриваются некоторые вопросы управления инклюзивным образованием в дошкольных образовательных организациях.

Ключевые слова: инклюзивное образование, дошкольная образовательная организация, дети с особыми образовательными потребностями, педагог, организационно-педагогические условия, качество образования.

Abstract: The implementation of inclusive education in preschool educational institutions is of great importance in education reform processes. Inclusive education not only enables the provision of high-quality educational services to children with special educational needs but also improves the activities of preschool educational institutions in both form and content. This article examines some issues related to the management of inclusive education in preschool educational institutions.

Keywords: inclusive education, preschool educational institution, children with special educational needs, teacher, organizational and pedagogical conditions, quality of education.

Yurtimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar jarayonlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'limi muhim yo'nalishlardan birini tashkil etadi. "O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarga jamiyat va davlat tomonidan ko'mak va yordam berish, ularni ijtimoiy-siyosiy hayotga faol jalb etishga qaratilgan keng ko'lamlı chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda", - degan edi davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev [1].

Ma'lumki, inklyuziv ta'lim bugungi kunda dunyo miqyosida nogironligi bo'lgan bolalar uchun eng maqbul va keng tarqalayotgan ta'lim shaklidir. Keyingi yillarda BMTga a'zo bo'lgan davlatlar ichida inklyuziv ta'limni joriy etishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda, ta'limning barcha turlari uni tashkil etish va rivojlantirish tendensiyalari tobora faollashib bormoqda [2].

O'zbekistonda inklyuziv ta'limning bosqichma-bosqich joriy etilishi jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining "Inson qadri uchun" degan bosh g'oyasi hamda BMTning Ming yillik rivojlanish maqsadlariga ham to'liq mos keladi.

Yurtimizda ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 391-son qarori bilan tasdiqlangan "Ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari va qo'shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari to'g'risida Nizom" [3] asosida takomillashib bormoqda.

Mazkur Nizomda inklyuziv ta'lim guruhleri tashkil etilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida boshqaruvning asosiy tashkiliy va huquqiy asoslari o'z ifodasini topdi. Ushbu Nizomga ko'ra, inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkiloti Pedagogik kengash, Kuzatuv kengashi, ta'lim tashkiloti direktori va psixologik-tibbiy-pedagogik kengash tomonidan boshqariladi.

Bu jarayonda **Pedagogik kengash**, asosan, ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, tashkilot ish rejasi hamda pedagog xodimlarning pedagogik yuklamasini belgilash, ta'lim dasturini amalga oshirish natijalarini baholash, bolaning qonuniy vakillari bilan hamkorlik tartibini belgilash, pedagog xodimlar malakasini oshirish, ularning ijodiy tashabbusini rivojlantirish, ta'lim jarayoniga fan yutuqlarini va ilg'or pedagogik tajribani joriy etish, xodimlarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish hamda davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti rahbari va pedagog xodimlari hisobotlarini eshitish kabi masalalarni ko'rib chiqadi.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti Kuzatuv kengashi bolani tarbiyalash, rivojlantirish va ta'lim berishda ko'maklashish maqsadida tashkil etiladi. Uning tarkibi ushbu tashkilotga boradigan bolalarning qonuniy vakillari, uning xodimlari, shuningdek, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillaridan tuziladi. Kuzatuv kengashi davlat maktabgacha tashkilotini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan tavsiya etilgan nomzodlar orasidan tashkilot rahbarini saylaydi, shuningdek uni egallagan lavozimidan ozod qilish bo'yicha takliflarni belgilangan tartibda kiritadi, uning faoliyatini takomillashtirish yuzasidan ko'rilayotgan chora-tadbirlar, moliya-xo'jalik holati, daromadlar va xarajatlar, byudjet, byudjetdan tashqari, homiylik va boshqa mablag'lardan foydalanish to'g'risidagi davriy hisobotlarini eshitadi, tashkilot rahbari, pedagog xodimlar va boshqa xodimlar faoliyatiga taalluqli ijtimoiy so'rovlar o'tkazadi hamda tuman (shahar) maktabgacha ta'lim bo'limlariga davlat ixtisoslashtirilgan maktabgacha tashkiloti va qo'shma turdagi davlat maktabgacha tashkiloti xodimlarini rag'batlantirish to'g'risida takliflar kiritadi.

Tibbiy-psixologik-pedagogik kengash bola qabul qilinganda uning o'ziga xos va yosh xususiyatlarini, sog'lig'i holati va rivojlanish darajasini hisobga olib korreksion-pedagogik hamda reabilitatsiya tadbirlarini o'tkazish yuzasidan individual yo'nalishni ishlab chiqadi, individual yo'nalishni amalga oshirish jarayonida bola rivojlanishi dinamikasini aniqlaydi va zarurat bo'lsa, unga o'zgartishlar kiritadi, korreksion-pedagogik va reabilitatsiya tadbirlari natijalari, bolaning o'ziga o'zi xizmat ko'rsatish ko'nikmalari darajasi va ijtimoiy moslashuv dinamikasi, ta'lim-tarbiya dasturlarini o'zlashtirishi monitoringini olib boradi va baholaydi va bola maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lgan muddat davomida uni psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaga qayta tekshiruvga yuborish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqadi hamda psixologik-tibbiy-pedagogik komissiya xulosasida ko'rsatilgan bolaning bo'lish muddati tugashidan kamida bir oy oldin bolaning qonuniy vakillarini tarbiyalanuvchining mazkur ta'lim tashkilotida bo'lish muddati tugaganidan xabardor qiladi hamda ushbu tashkilot bo'lishini davom ettirish yuzasidan uni psixologik-tibbiy-pedagogik komissiyaga tekshiruvga yuboradi.

Inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkiloti direktorining malaka tavsiflari va lavozim majburiyatlari Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan hamda huquqlari hamda

majburiyatlari qonunchilikda, ustavda, boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda, shuningdek, mehnat shartnomasida belgilanadi.

Ma'lumki, inklyuziv ta'lim o'ziga xos murakkab jarayon bo'lib, uni boshqarish jarayondagi har bir ishtirokchidan alohida bilim, tajriba, mahorat va madaniyat talab etadi.

Shu o'rinda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilishi, inklyuziv ta'lim boshqaruvini yanada takomillashtirishga yordam beradi:

Birinchidan, inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari faoliyatini metodik qo'llab-quvvatlash ishlarini yanada takomillashtirish – ma'lumki, inklyuziv ta'lim O'zbekistonda o'zining ilk tajribalarini to'plamoqda, shu bilan birgalikda ilg'or xorijiy tajriba, texnologiya va metodlarning kirib kelishi davom etmoqda. Bunday sharoitda inklyuziv maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktorlari uchun ilmiy va amaliy seminarlar, qisqa muddatli o'quv kurslari tashkil etish hamda onlayn platformalar orqali inklyuziv ta'lim borasidagi bilim va malakalarini oshirib borish lozim.

Ikkinchidan, Kuzatuv kengashi faoliyatiga hududlardagi Pedagogik mahorat markazlari va oliy ta'lim muassasalarining inklyuziv ta'lim bo'yicha professor-o'qituvchilari va mutaxassislarini jalb etgan holda, ta'lim tashkiloti faoliyatini ilmiy asoslarda tashkil etish va baholab borish imkoniyatini yaratish ham shular jumlasidandir.

Uchinchidan, inklyuziv ta'lim sifati ta'lim tashkilotining jamoatchilik bilan aloqalari, shu jumladan, ota-onalar bilan hamkorligi sifati bilan uzviy bog'liqdir. Ota-onalar ta'lim tashkiloti faoliyati va boshqaruvida samarali ishtirok etishlari uchun "Ota-onalar kengashi" jamoatchilik tuzilmasi faoliyatini yangi Nizom, maqsad va vakolatlar asosida tashkil etishni maqsadga muvofiq, deb bilamiz. Mazkur tuzilma ta'lim tashkilotini boshqarish, ta'lim jarayoniga ota-onalarni yanada keng jalb qilish, shuningdek, inklyuziv ta'limni jamiyatda keng targ'ib qilish orqali uni nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

To'rtinchidan, ta'lim tashkilotidagi psixologik-tibbiy-pedagogik kengashlar tarkibiga ham nafaqat tashkilot mutaxassislarini, balki, viloyat va tuman komissiyalari a'zolarini, tor doiradagi tibbiy mutaxassislarni maslahatchi sifatida jalb etish zarur bo'ladi. Natijada, bolalar bilan olib borilayotgan tibbiy va korreksion ishlarning sifati yanada yaxshilanadi.

Xulosa, sifatida aytganda, inklyuziv maktabgacha ta'limda boshqaruvni bugungi kun talablari darajasida tashkil etish, normativ-huquqiy bazani izchil takomillashtirish, kadrlar salohiyati va ularning metodik ta'minoti hamda boshqaruvda jamoatchilik ishtirokini kengaytirish bilan bohliq bo'lib, o'z navbatida, alohida ilmiy va amaliy tadqiqotlarni talab etadi.

Bu esa inklyuziv ta'limni yurtimiz sharoitida xalqaro andozalar va xorijiy tajribalar asosiy izchil rivojlantirish va milliy tajribani yanada takomillashtirishga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Nogironligi bo'lgan shaxslar huquqlarining himoyasi nafaqat adolat masalasi, balki jamiyat taraqqiyotiga kiritilgan sarmoya ham hisoblanadi. Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy markazi.

<http://nhrc.uz/uz/news/m9426>

2. Организация объединенных наций. Инклюзия инвалидов в системе Организации Объединенных Наций. Итоги прогресса за 2019–2024 годы. Доклад Генерального секретаря.

https://www.un.org/sites/un2.un.org/files/undis_report2024-ru.pdf

4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 13.05.2019-yildagi 391-son. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida. <https://lex.uz/docs/4333062#4335918>